

*Jamshid PIRMATOV,*

*O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisi Qonunchilik  
palatasi deputati*



## KONSTITUTSIYA — FAROVON TURMUSHIMIZ VA YORUG‘ ISTIQBOLIMIZ TIMSOLI

Bu yil Bosh Qomusimiz — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligi keng nishonlanmoqda.

**T**a’kidlash lozimki, yurtimizda nishonlanadigan bayramlar orasida ushbu bayramning o‘ziga xos xususiyati bor. Chunonchi, har yili Konstitutsiya kunida yurt-doshlarimiz Davlat rahbarining xalqimizga yo‘llaydigan bayram tabrigini, ezgu tilaklarini va ma’ruzasini katta hayajon bilan kutadi. Boisi, Prezidentimizning ayni ushbu ma’ruzasi jamiyatimizning barcha sohalarida kechayotgan islohotlarning bugungi holati va muqoyasasi o‘laroq har birimizning hayotimiz, taqdirimiz, farzandlarimizning yorug‘ kelaja-

giga daxldor g‘oyalarga yo‘g‘irilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning bu yilgi bayram tabrigini ham biz xalq vakillari katta qiziqish bilan tingladik. Unda bildirilgan har bir fikr, har bir taklifdan, belgilab berilgan ustuvor vazifalardan tegishli xulosalar chiqardik, albatta. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo‘lgan Konstitutsiyamiz yurtimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib

o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, asosiy qonunimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishda, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o‘rin egallayotganiga barchamiz guvoh bo‘lib turibmiz.


Keyingi yillarda xalq bilan doimiy mu-loqotda bo‘lish, odamlarning tashvish-muammolarini hal etish, ularni rozi qilish faoliyatimizning asosiy mezoniga aylanib

ulgurdi. Prezidentimiz o'z ma'ruzasida Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida sud-huquq, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, ta'lim, aholining ijtimoiy himoyasiga qaratilgan islohotlar hamda ushbu sohalarida yechimini kutayotgan dolzarb masalalarni birma-bir sanab, ularning yechimi borasida ustuvor vazifalarni belgilab berdi, ayniqsa, Oliy Majlis palatalarining qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini tashkil etishga doir konstitutsiyaviy vakolatidan samarali foydalana olmayotgani haqidagi tanqidiy fikrlar bizni bu boradagi faoliyatimizga yanada jiddiy e'tibor bilan yondashishga undaydi. To'g'ri, parlament majlislarida markaziy organlar va hududlar rahbarlari hisobotlarini eshitishda yoki qonun muhokamalarini jarayonida bahsmunozaralar biroz jonlangan bo'lsada, hali Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraktsiyalari o'rtasida haqiqiy prinsipial tortishuvlar bo'layapti deb ayta olmaymiz.

Shu munosabat bilan ma'ruzada ta'kidlanganidek, Oliy Majlis palatalarida qonunlar ijrosini ko'rib chiqish, rahbarlar hisobotini eshitish bilan cheklanmasdan, bevosita joylardagi ahvolni tizimli ravishda o'rganish va tegishli takliflar ishlab chiqish amaliyotini yo'lga qo'yishimiz zarur. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, fuqarolarda islohotlarga, nisbatan daxldorlik hissini shakllantirish hamda kuchli va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatishning muhim mexanizmi sifatida kelgusi yildan boshlab «Jamoat fikri» portalini ishga tushirish borasidagi qaror ham barchamiz uchun muhim yangilik bo'ldi. Qolaversa, Prezidentimiz jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari g'oyat muhim o'rin tutishiga alohida e'tibor qaratib, islohotlar mohiyati, qabul qilinayotgan qonun va qarorlar ijrosi bilan bog'liq muammolar, aholi murojaatlari yuzasidan gazeta, tele va radiokanallarda tanqidiy maqola, ko'rsatuv va eshittirishlar juda kam ekanligini afsus bilan qayd etdi.

Shu o'rinda alohida qayd etish lozimki, keyingi ikki yilda Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan fikr va so'z erkinligini ta'minlash borasida ommaviy axborot vositalarida jonlanishlar kuzatildi, ayniqsa, joriy yilda O'zbekiston Respublikasining «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi qonunga ma'lumotlarni izlash, jurnalistik surishtiruv o'tkazish borasidagi normalarga mualliflarning daxlsizligini mustahkamlashga qaratilgan muhim o'zgarishlar kiritildi. Shunday bo'lsada, soha egalari ushbu huquqlardan hali to'la foydalana olmayapti, deb ayta olmaymiz.

Ma'ruzada alohida qayd etilganidek, islohotlar jarayonida ommaviy axborot vositalari xalq manfaatlarining chinakam himoyachisiga



aylanishi lozim. Buning uchun ulardan shijoat, professional mahorat, xolislik va chuqur tahliliy salohiyat talab etiladi. Prezidentimiz parlament oldida turgan vazifalarga to'xtalar ekan, biz uchun muhim bo'lgan to'rtta ustuvor yo'nalishni belgilab berdi, ya'ni, birinchidan, Oliy Majlis palatalarining parlament so'rovlari va parlament eshituvlari qonun va qarorlar ijrosini hamda islohotlarimiz samaradorligini ta'minlovchi ta'sirchan vositaga aylanishi kerakligini, ikkinchidan, deputat va senatorlarimiz bevosita joylarga chiqib, aholini tashvishga solayotgan muammolarni tizimli ravishda chuqur o'rganib borishlari zarurligini, shu bilan birga, ularni hal etish bo'yicha Hukumat va hokimliklar oldiga vazifa qo'yishi va talab qilishi, shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha aniq choralarni ko'rish kerakligini, uchinchidan, qonunosti hujjatlarini qabul qilish amaliyotidan voz kechish va to'g'ridan-to'g'ri qo'llanadigan qonunlar qabul qilish vaqti kelganligini, to'rtinchidan, har bir qonun yoki qarorning yaratilishi sohadagi mavjud muammolarni chuqur tahlil etish, shuningdek, xorijiy ilg'or tajribalarni muntazam o'rganish parlamentimiz oldida turgan muhim masalalar qatorida ekanligini ta'kidladilar.

Har qanday qonun hujjatini qabul qilishdan pirovard maqsad — xalqimizning turmush sharoitini yaxshilash ekanini unutmasligimiz zarur. Albatta, ushbu ustuvor vazifalar biz, deputatlardan faoliyatimizni yana bir bor tanqidiy tahlil qilib, Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan yuqoridagi

vazifalar doirasida amaliy natijalarga erishimiz va shu orqali xalqimizning, saylovchilarimizning ishonchini qozonmog'imiz zarur. Shu bilan birga, jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish ham biz, xalq vakillarining doimiy diqqat markazimizda bo'lmog'i lozim, ya'ni joylarda bo'lganimizda aholining keng qatlami, ayniqsa, yoshlar bilan bevosita uchrashuvlarda huquqiy tarbiyani keng yo'lga qo'yishimiz, Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishiga o'z hissamizni qo'shmog'imiz darakor.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, biz xalqimizning farovon hayotini, farzandlarimizning yorug' kelajagini ta'minlash uchun bundan buyon ham bir tanu, bir jon bo'lib, bor salohiyat, bilim va tajribamizni safarbar etishimiz lozim. 🇺🇵

